



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 406 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 196	
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications..... 218 Allamurodov Elyor Tursun ugli	218
	Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini..... 223 Dilrabo Jumanova	223
	Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar 227 Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	227
	Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar 232 Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	232
	Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati... 235 Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	235
	Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi..... 239 Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	239
	Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ... 244 Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	244
	Ingliz tilini boshqa sohadagilarga o'qitishda grammatik jihatlar 247 Ataboyeva Guliruxsor Baxtiyor qizi	247
	Methodological Foundations for Developing Environmental Education Through the Integration of Climate Change Education Into Biology Lessons in General Secondary Schools..... 250 Abdurakhmanova Iqbolkhon Yulchiyevna	250
	Sharq va G'arb mutafakkir olimlarining oila va farzand tarbiyasi borasidagi qarashlari 255 Berdiyeva Dilnoza A'zamovna	255
	Ommaviy sport turlari yordamida ayollarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirishda ilmiy yondashuv 258 Charos Axmadova	258
	STEAM integratsiyasi orqali maktab o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish 262 Choriyor Maxmatraimov Eshmamatovich	262
	Maktabgacha ta'lim kafedrasida bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion-metodik faoliyatga tayyorlashni transformatsion boshqarish texnologiyasi 267 Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	267
	Raqamli transformatsiya sharoitida yosh ota-onalarda yolg'izlik hissining namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar 272 Erimmetova Nafisa Bahromovna	272
	Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning strategiyalari 279 Haqberdiyeva Dinora Qobil qizi	279
	Maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari..... 283 Karimov Jaxongir Abdunabiyevich	283
	Jadidlar merosiga e'tibor: tarixiy xotira va ma'naviy tiklanish omili..... 287 Madaminova Shaxodat Shomurotovna	287
	Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limdagi o'rni va nutqni baholashdagi imkoniyatlari..... 293 Mahmudova Maftuna Aktam qizi	293
	Effectiveness of Simulator Technologies in Pilot Training: an Experimental Study 297 Maksudov Ilhomjon Turgunboy o'g'li	297
	Yangi O'zbekistonda o'qituvchi maqomining huquqiy kafolatlari va pedagogik faoliyat samaradorligi..... 301 Menlibayeva Azima Oralbayevna, Oralbayeva Aziza	301
	Raqamli jamiyat sharoitida ong transformatsiyasining falsafiy jihatlari..... 305 Muxitdin Nazarov	305
	10-11-sinf o'quvchilarida o'qishdan yozuvga o'tish ko'nikmasini rivojlantirishning bosqichli metodik tizimi ... 310 Nazarova Shoiraxon Abdumo'min qizi	310
	Zamonaviy ta'lim paradigmasida "potensial" tushunchasi: shaxsning rivojlanishga qaratilgan ichki imkoniyatlari, bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiya..... 314 Qurbonova Gulmira Alisher qizi	314



Deffenbacherning driving anger scale metodi asosida haydovchilarning agressiv xulq-atvorining psixologik xususiyatlarini jinslar kesimida o'rganish	318
Rahim Usmonov Raxmonali o'g'li	
Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	323
Sadoqat Sarmanova Shermahmatovna	
Vizual axborot: paydo bo'lish tarixi, qo'llanish sohalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati.....	328
To'g'izboyev Faxriddin Ulashovich	
Fizika darslarini tashkil etishning mazmuni, mohiyati va didaktik tamoyillari.....	334
Turabova Lobar Xusen qizi	
Ekstrakorporal urug'lantirish orqali tug'ilgan bolalarda xotiraning rivojlanishi	339
Usmonova Xusnora Ergashovna	
Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional barqarorligini shakllantirish	344
Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna	
Milliy va xalq o'yinlari vositasida talabalarni sog'lomlashtirish.....	347
Ahmedov Gayratjon Kosimovich	
Деонтология медицинского персонала: этико-профессиональные ориентиры в условиях современной медицины.....	350
Бабаджанова Гулчеҳра	
Формирование творческого восприятия учащихся на уроках музыки.....	355
Габдульманова Ильнура Минисламовна	
Qizlar tarbiyasida maktab va mahalla hamkorligi monitoring tizimini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	358
Abdurazoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida iqtisodiy tushunchalarni shakllantirish pedagogik muammo sifatida	362
Ergashova Dilafro'z	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy karyerani shakllantirishning metodologik asoslari	365
Hayitova Sarvinovz Mahmudovna, Ilmiy rahbar: Ashirova Sojida Baxromovna	
Pedagogical and Methodological Foundations for Developing an Interactive Mobile Application for Teaching English to Preschool Children (Based on the Solobee Project).....	368
Khurshida Kuchkarova	
O'spirinlarda kiberbullingning profilaktikasi va psixokorreksion imkoniyatlari.....	373
Ibodova Gulimehr Inoyat qizi	
Pedagogical Factors and Didactic Conditions for Developing Communicative Competence in Future Teachers.....	378
Mirzayeva Gulshan Azamatovna	
Musiqqa ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari.....	382
Altmisheva Maftunabonu Baxtiyor qizi	
The Importance of the Concept of Discursive Competence in Teaching English	386
Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi	
Koxlear implantli bolalarni ta'lim jarayoniga moslashtirishning korreksion-pedagogik asoslari	390
Najimova Muhabbat	
Alfa avlod uchun internet xavflari klassifikatsiyasi metodlarini ishlab chiqish klassifikatori	393
Ahralov Shavkat Sulaymonovich, Ahrorova Sevara Sulaymon qizi	
Aqli zaif o'quvchilar ta'limida sensor integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari.....	398
Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna	
Koxlear implantatsiyali o'quvchilarning psixologik-pedagogik rehabilitatsiyasi samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish	401
Yuldasheva Saodat Utkurovna	

AQLI ZAIF O'QUVCHILAR TA'LIMIDA SENSOR INTEGRATSIYANING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Tajibayeva Shaxnoza Abdumuxtorovna

Andijon shahar 12-sonli ixtisoslashtirilgan maktab logopedi

Annotatsiya: Mazkur maqolada aqli zaif o'quvchilar ta'limida sensor integratsiya texnologiyasining nazariy asoslari, uning neyropsixologik va pedagogik mazmuni hamda amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sensor integratsiya markaziy nerv tizimining turli sezgi kanallaridan kelayotgan axborotni qayta ishlashi, tartibga solishi va mos javobni shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon buzilganda diqqat, xulq-atvor, motorika, nutq va o'quv faoliyatida qiyinchiliklar kuzatiladi.

Kalit so'zlar: aqli zaif o'quvchilar, sensor integratsiya, maxsus pedagogika, korreksion ta'lim, multisensor yondashuv, individual ta'lim.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of sensory integration technology in the education of students with intellectual disabilities, its neuropsychological and pedagogical content, and its practical applications. Sensory integration is interpreted as the process of processing, organizing, and forming an appropriate response to information received through various sensory channels of the central nervous system. When this process is disrupted, difficulties arise in attention, behavior, motor skills, speech, and academic performance.

Key words: students with intellectual disabilities, sensory integration, special pedagogy, remedial education, multisensory approach, individualized education.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы технологии сенсорной интеграции в образовании учащихся с интеллектуальными нарушениями, её нейropsихологическое и педагогическое содержание, а также практические возможности. Сенсорная интеграция рассматривается как процесс обработки, организации и формирования адекватного ответа на информацию, поступающую из различных сенсорных каналов центральной нервной системы. При нарушении данного процесса наблюдаются трудности с вниманием, поведением, моторикой, речью и учебной деятельностью.

Ключевые слова: учащиеся с интеллектуальными нарушениями, сенсорная интеграция, специальная педагогика, коррекционное обучение, мультисенсорный подход, индивидуальное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda maxsus va inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish, imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqlarini ta'minlash hamda ularni jamiyatga samarali integratsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, ularning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash va mustaqil hayotga tayyorlash dolzarb pedagogik muammolardan sanaladi. Aqli zaif o'quvchilarda ko'pincha sensor axborotni qabul qilish, qayta ishlash va unga mos ravishda javob qaytarish jarayonlarida qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu esa o'quvchilarning diqqatini bir joyga jamlay olmasligi, xotira jarayonlarining sust rivojlanganligi, nutqiy faoliyatining cheklanganligi, mayda va yirik motorika harakatlardagi nuqsonlar hamda xulq-atvordagi ayrim muammolar orqali namoyon bo'ladi. Natijada ularning o'quv materialini o'zlashtirish darajasi pasayadi, amaliy topshiriqlarni bajarishda qiyinchiliklar yuzaga keladi va ijtimoiy moslashuv imkoniyatlari cheklanadi.

So'nggi yillarda jahon maxsus pedagogikasi va korreksion ta'lim amaliyotida sensor integratsiya texnologiyasi mazkur muammolarni bartaraf etishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Sensor integratsiya turli analizatorlar orqali qabul qilingan ma'lumotlarning miya tomonidan muvofiqlashtirilishi va yaxlit faoliyatga aylantirilishini ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilarning diqqatini barqarorlashtirish, nutqiy va kognitiv faolligini oshirish, harakatlar koordinatsiyasini rivojlantirish hamda ijobiy xulqiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat



qiladi. Mamlakatimizda maxsus va inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, aqli zaif o'quvchilar bilan ishlashda sensor integratsiya texnologiyasidan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashga oid tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shu bois mazkur masalani chuqur o'rganish, sensor integratsiya texnologiyasining maxsus ta'limdagi ahamiyatini yoritish hamda uni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqish muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sensor integratsiya insonning tashqi muhit va o'z organizmidan kelayotgan sezgi axborotlarini qabul qilish, saralash, tahlil qilish hamda ularni maqsadga muvofiq faoliyatga yo'naltirish jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon tufayli inson ko'rish, eshitish, taktil, vestibulyar, proprioseptiv va boshqa sezgi tizimlari orqali olingan ma'lumotlarni yaxlit holda qabul qiladi hamda atrof-muhitga mos harakat va xulqiy reaksiyalarni namoyon etadi. Sensor integratsiyaning yetarli darajada shakllanganligi bolaning kognitiv rivojlanishi, nutqi, harakat faolligi, ijtimoiy munosabatlari va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi.

Sensor integratsiya nazariyasi amerikalik olim va ergoterapevt Anna Jean Ayres tomonidan ishlab chiqilgan. Uning ta'kidlashicha, miyaga turli analizatorlar orqali kelib tushadigan sensor axborotlarning samarali qayta ishlanishi keyingi bilish va harakat faoliyatining asosini tashkil etadi. Olima sensor integratsiyani "miyaning sezgi organlaridan kelgan ma'lumotlarni tashkillashtirish va ulardan maqsadli foydalanish qobiliyati" sifatida izohlaydi. A. Jean Ayres nazariyasiga ko'ra, sensor jarayonlardagi buzilishlar bolaning o'rganish qobiliyati, harakat koordinatsiyasi, diqqatni boshqarishi va ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Markaziy nerv tizimi sensor integratsiya jarayonining asosiy fiziologik mexanizmi hisoblanadi. Turli sezgi retseptorlaridan qabul qilingan axborot bosh miyaning tegishli qismlariga uzatiladi, u yerda tahlil qilinib, o'zaro bog'lanadi va muvofiq javob reaksiyalari shakllantiriladi. Mazkur jarayonning samaradorligi bolaning atrof-muhitni anglashi, harakatlarni rejalashtirishi, diqqatini boshqarishi va yangi bilimlarni o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Agar markaziy nerv tizimida sensor ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelsa, bolada sensor integratsiya buzilishlari kuzatilishi mumkin.

Sensor buzilishlar o'quv faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarda o'quvchilar diqqatni jamlashda qiynaladilar, ko'rsatmalarni to'liq tushunmaydilar, o'qish va yozish jarayonida xatolarga yo'l qo'yadilar hamda harakatlarni muvofiq lashtirishda muammolarga duch keladilar. Shuningdek, nutqiy faoliyat rivojlanishining sekinlashuvi, emotsional beqarorlik va xulqiy qiyinchiliklar ham namoyon bo'lishi mumkin. Ayniqsa, aqli zaif o'quvchilarda sensor axborotlarni qayta ishlash jarayonlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ta'lim samaradorligini pasaytiradi hamda ularning ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli maxsus ta'lim jarayonida sensor integratsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, harakat va nutq ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aqli zaif o'quvchilarning rivojlanishida bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy soha va harakat faoliyatiga xos o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi. Bu xususiyatlar ularning ta'lim olishi, atrof-muhitni anglashi va ijtimoiy munosabatlarga kirishishi jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur toifadagi o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda ta'lim jarayonini ularning ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Aqli zaif o'quvchilarda idrok va sezgi jarayonlarining rivojlanishi ma'lum darajada sekinlashgan bo'ladi. Ular tashqi muhitdan kelayotgan axborotlarni qabul qilish, tahlil qilish va umumlashtirishda qiynaladilar. Predmet va hodisalarning muhim belgilarini ajratib ko'rsatish, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash hamda voqelikni yaxlit idrok etishda muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi. Natijada qabul qilingan axborotning to'liq va aniq aks ettirilishi ta'minlanmaydi, bu esa keyingi bilish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur o'quvchilar diqqatining barqaror emasligi bilan ham ajralib turadilar. Ular uzoq vaqt davomida bir faoliyatga e'tiborini qarata olmaydilar, diqqatlari tez chalg'iydi va bir obyektidan ikkinchisiga oson ko'chadi. Shuningdek, diqqat hajmining cheklanganligi hamda uni taqsimlash va boshqarishdagi qiyinchiliklar ta'lim materialini o'zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi. Bu holat dars jarayonida ko'rsatmalarni to'liq bajar-maslik, topshiriqlarni oxirigacha yetkazmaslik kabi vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Aqli zaif o'quvchilarda xotira va tafakkur jarayonlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular yangi ma'lumotlarni eslab qolish, saqlash va zarur paytda qayta tiklashda qiynaladilar. Ayniqsa, mantiqiy xotiraga nisbatan mexanik xotira ustunroq rivojlangan bo'ladi. Tafakkur jarayonida esa tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy

operatsiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligi kuzatiladi. Shu sababli abstrakt tushunchalarni o'zlashtirish qiyin kechadi va ko'proq aniq hamda ko'rgazmali materiallarga ehtiyoj seziladi.

Harakat faoliyatida ham muayyan nuqsonlar uchraydi. Mayda va yirik motorika rivojlanishidagi kechikishlar, harakatlarning noaniqligi va muvofiqlashuvining sustligi ko'p hollarda kuzatiladi. Shuningdek, muvozanatni saqlash, harakatlarni rejalashtirish va boshqarishdagi qiyinchiliklar jismoniy faollik hamda amaliy mashg'ulotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holatlar ko'pincha vestibulyar va proprioseptiv tizimlar faoliyatining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Nutqiy rivojlanish va ijtimoiy moslashuv sohasida ham qator muammolar kuzatiladi. Lug'at boyligining cheklanganligi, nutqning grammatik tuzilishidagi kamchiliklar, tovushlarni talaffuz qilishdagi nuqsonlar hamda fikrni izchil bayon qilishdagi qiyinchiliklar muloqot jarayonini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, ijtimoiy munosabatlarni tushunish, tengdoshlari bilan muloqot o'rnatish va jamoa faoliyatida ishtirok etishda ham muayyan qiyinchiliklar mavjud bo'ladi. Natijada ularning ijtimoiy moslashuv darajasi pasayishi mumkin. Sensor integratsiya texnologiyasini aqli zaif o'quvchilar ta'limi jarayoniga maqsadli va tizimli ravishda joriy etish ularning bilish faoliyati, emotsional holati hamda ijtimoiy moslashuvda ijobiy o'zgarishlarga olib kelishi kutiladi.

Avvalo, o'quvchilar diqqatining barqarorligi va jamlanganlik darajasi yaxshilanadi. Sensor mashqlar va maxsus tashkil etilgan multisensor muhit ta'sirida o'quvchilarning diqqatini bir faoliyatga uzoqroq vaqt davomida qarata olishi, ko'rsatmalarni to'liq qabul qilishi hamda o'quv topshiriqlarini izchil bajarishi ta'minlanadi. O'quv faoliyatiga kirishish jarayoni yengillashadi. Sensor integratsiya elementlari bolalarning ta'lim jarayoniga qiziqishini oshiradi, ularning darsdagi ishtirokini faollashtiradi va yangi bilim hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu esa o'quv faoliyati samaradorligining ortishiga xizmat qiladi. Texnologiyaning muhim natijalaridan yana biri o'quvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish hisoblanadi. Sensor ehtiyojlarning qondirilishi hissiy zo'riqish, bezovtalik va xulqiy muammolarning kamayishiga yordam beradi. Natijada o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganadilar hamda ta'lim jarayonida o'zlarini erkin va ishonchli his qiladilar. Sensor integratsiya texnologiyasi nutq va motorika rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mayda va yirik motorikaning takomillashuvi harakatlarning aniqligi va muvofiqlashuvini yaxshilaydi. Bu esa o'z navbatida nutq apparati faoliyatining rivojlanishiga, lug'at boyligining kengayishiga va muloqot ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, sensor integratsiyani qo'llash aqli zaif o'quvchilarning kognitiv, nutqiy, harakat va ijtimoiy rivojlanishini kompleks ravishda qo'llab-quvvatlab, ularning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini hamda hayot sifatining yaxshilanishini ta'minlaydi.

XULOSA

Aqli zaif o'quvchilar ta'limida sensor integratsiya sezgi axborotlarini samarali qayta ishlashni ta'minlash, o'quv faolligini oshirish hamda xulq-atvorni barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Sensor integratsiyaning amaliy ahamiyati multisensor ta'lim muhitini yaratish, individual yondashuvni ta'minlash va korreksion-rivojlantiruvchi mashqlar tizimini qo'llash orqali namoyon bo'ladi. Bu esa aqli zaif o'quvchilarda diqqatning barqarorlashuvi, nutq faoliyatining rivojlanishi, mayda va yirik motorika ko'nikmalarining takomillashuvi, emotsional holatning boshqarilishi hamda ijtimoiy munosabatlarning yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, sensor integratsiya elementlarini maxsus ta'lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish, pedagoglarni mazkur texnologiya asosida tayyorlash va har bir o'quvchining individual sensor profilini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv aqli zaif o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash, ularning mavjud imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuvini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayres, A. J. Sensory Integration and Learning Disorders. Los Angeles, 1972.
2. Bundy, A., Lane, S., Murray, E. Sensory Integration: Theory and Practice. F.A. Davis Company, 2002.
3. Guardado, K. E., Sergent, S. R. Sensory Integration. StatPearls, 2023.
4. Schoen, S. A., Lane, S. J., Mailloux, Z. va boshq. A Systematic Review of Ayres Sensory Integration Intervention for Children with Autism. 2019.
5. Miller, L. J. Sensational Kids: Hope and Help for Children with Sensory Processing Disorder (SPD). New York: Perigee Books, 2006.
6. Parham, L. D., Ecker, C., Miller Kuhaneck, H., Henry, D. A., Glennon, T. J. Sensory Integration and Processing in Children: Theory and Practice. 2nd ed. Los Angeles: Western Psychological Services, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.